

## O'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA O'QUV MOTIVATSIYASINING ROLI

**Nilufar Xudoyberdiyeva Raximqulovna,**  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*  
*San'atshunoslik kafedrasasi asistent o'qituvchisi,*  
*E-mail: [xudoyberdiyevanilufar2486@gmail.com](mailto:xudoyberdiyevanilufar2486@gmail.com)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18695476>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda motivatsiyaning pedagogik va psixologik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida o'quv motivatsiyasi darajasi va tadbirkorlikka bo'lgan qiziqish o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** Tadbirkor, ko'nikma, motivatsiya, o'quv motivatsiyasi, ijtimoiy motivatsiya, texnologiya, ijodiy yondashuv.

**Abstract.** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda motivatsiyaning pedagogik va psixologik imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida o'quv motivatsiyasi darajasi va tadbirkorlikka bo'lgan qiziqish o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan.

**Keywords:** Entrepreneur, skills, motivation, learning motivation, social motivation, technology, creative approach.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается педагогический и психологический потенциал мотивации в развитии предпринимательских навыков у учащихся средних школ. В исследовании анализируется взаимосвязь между уровнем академической мотивации и интересом к предпринимательству.

**Ключевые слова:** Предпринимательство, навыки, мотивация, мотивация к обучению, социальная мотивация, технологии, творческий подход.

**Kirish.** Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yosh avlodni nafaqat bilimli, balki mustaqil qaror qabul qila oladigan va tadbirkorlik tafakkuriga ega shaxs sifatida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish shunchaki biznes yuritishni o'rgatish emas, balki ularda tashabbuskorlik, mas'uliyat va kreativlikni uyg'otishdir. Ko'pincha o'quvchilarda nazariy bilimlar bo'lsa-da, ularni amaliyotda qo'llash uchun yetarli ichki turtki (motivatsiya) yetishmaydi. Maqolaning maqsadi — o'quv motivatsiyasini oshirish orqali tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning samarali usullarini aniqlash.

Tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni faqatgina iqtisodiy tushunchalarni o'rgatish bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayonning negizida o'quvchining ichki intilishi — o'quv motivatsiyasi yotadi. Motivatsiyasiz o'zlashtirilgan bilim o'lik bilimdir; u amaliyotda harakatga kelmaydi. Bugungi kunda maktab ta'limida o'quvchilarning "nima uchun o'qishim kerak?" degan savoliga aniq amaliy javob topa olmasligi, ularning tadbirkorlik tashabbuslarining pastligiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, o'quv motivatsiyasini tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi "katalizator" sifatidagi rolini o'rganish ilmiy jihatdan nihoyatda muhim.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish va bunda motivatsiyaning o‘rnini o‘rganish pedagogika va psixologiya fanlarining kesishuv nuqtasidagi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilishda biz uchta asosiy yo‘nalishni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Tadbirkorlik faoliyatining motivatsion asoslarini o‘rganishda Devid Maklellandning (David McClelland) “Muvaffaqiyatga intilish” nazariyasi poydevor hisoblanadi. Uning fikricha, tadbirkorlik salohiyati yuqori bo‘lgan shaxslarda muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji boshqa omillardan ustun turadi. O‘quv jarayonida ushbu ehtiyojni uyg‘otish, ularda riskni baholash va mas’uliyatni his qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, Albert Banduraning “O‘z-o‘ziga samaradorlik” nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi o‘zining tadbirkorlik g‘oyasini amalga oshira olishiga ishonsagina (ya’ni ichki motivatsiyaga ega bo‘lsa), unda tadbirkorlik ko‘nikmalari barqaror shakllanadi. Yevropa ta’lim standartlarida tadbirkorlik nafaqat biznes yuritish, balki tadbirkorlik kompetensiyalari asosi modeli orqali kengroq talqin qilinadi. Ushbu modelga ko‘ra, motivatsiya va qat’iyatlilik tadbirkorlikning o‘n beshta asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. K. Robinson va D. Pink kabi zamonaviy tadqiqotchilar ta’limda ijodkorlik va ichki motivatsiyaning o‘rnini o‘rganib, tadbirkorlik ruhini so‘ndirmaydigan ta’limiy muhit yaratish zarurligini ta’kidlaydilar. D. Pink o‘zining “Drive” asarida ta’kidlaganidek, tashqi rag‘bat (baho, mukofot) emas, balki muxtoriyat va mahorat tadbirkorlikning asosiy motivlari hisoblanadi deydi.

O‘zbekistonlik olimlar ham ushbu masalani milliy ta’lim muhitidan kelib chiqib tahlil qilganlar. Xususan, Inoyatov va J. G‘ulomovlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda o‘quvchilarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish masalalarini yoritganlar. N. Muslimov tadqiqotlarida bo‘ljak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda motivatsiyaning o‘rni amaliy jihatdan asoslab berilgan. M. Saidov o‘quvchilarda tadbirkorlik xislatlarini tarbiyalashda oilaviy muhit va maktab ta’limining integratsiyasiga e’tibor qaratgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘quv motivatsiyasining ta’sirini aniqlash maqsadida miqdoriy va sifat tahlil usullarini o‘z ichiga olgan aralash yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayoni 2023-2024-o‘quv yilida umumta’lim maktablarining 8-9-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazildi. Tanlanma guruh sifatida jami 120 nafar o‘quvchi jalb etilib, ular ikki guruhga ajratildi: Nazorat guruhi (60 nafar): An’anaviy nazariy ta’lim uslubida dars o‘tiladigan guruh. Eksperimental guruh (60 nafar): Tadbirkorlikka yo‘naltirilgan va EntreComp modeliga asoslangan motivatsion texnologiyalar qo‘llaniladigan guruh.

Tadqiqot davomida quyidagi instrumental metodlardan foydalanildi:

So'rovnomasi: O'quvchilarning tadbirkorlikka bo'lgan moyilligini va ichki motivatsiya darajasini aniqlash uchun V.Gershikovning "M-T (Motivatsiya turlari)" so'rovnomasi hamda tadbirkorlik kompetensiyalari bo'yicha o'z-o'zini baholash testlari o'tkazildi.

Pedagogik eksperiment: Eksperimental guruhda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun "Loyihaviy o'qitish" va "Biznes simulyatsiyalar" metodlari joriy qilindi.

Kuzatish: O'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, kutilmagan vaziyatlarda qaror qabul qilish tezligi va jamoada ishlash qobiliyati 5 ballik shkala asosida baholab borildi.

Tadqiqotning ilmiy aniqligini ta'minlash uchun quyidagi o'zgaruvchilar tahlil qilindi:

Mustaqil o'zgaruvchi: O'quv motivatsiyasini oshirishga qaratilgan pedagogik metodlar (interaktiv o'yinlar, keys-stadi, EntreComp drayverlari).

Bog'liq o'zgaruvchi: O'quvchilarda shakllangan tadbirkorlik ko'nikmalari (tashabbuskorlik, moliyaviy savodxonlik, riskni boshqarish).

Texnologiya fanidan masalan 8-sinf darsligidagi gilam to'qish mavzusida o'quvchi uchun biznes reja tuzib ko'ramiz. Xarajatlar (Nimaga pul sarflaymiz?) O'quvchi loyihani boshlashdan oldin cho'ntagidan chiqadigan pulni (tannarxni) hisoblaydi.

Kerakli ashyolar	Miqdori(1m <sup>2</sup> uchun)	Narxi (taxminan)	Jami
Ip (paxta yoki jun)	3 kg	50 000 so'm/kg	150 000 so'm
Gullari uchun bo'yoq	2-3 xil	15 000 so'm/dona	30 000 so'm
Dastgoh ijarasi/eskirishi	1 ta gilam uchun	20 000 so'm	20 000 so'm
<b>JAMI XARAJAT</b>			<b>200 000 so'm</b>

Sotish narxi (Qancha daromad qilamiz?) O'quvchi bozorni o'rganib, qo'l mehnati bo'lgani uchun uni xarajatidan qimmatroqqa sotadi.

**Xarajat:** 200 000 so'm

**O'quvchining mehnati va foydasi:** 150 000 so'm

Foyda (Qancha cho'ntakda qoladi?) Bu eng muhim qism, chunki bu o'quvchida motivatsiya uyg'otadi: 350,000 sotuv - 200,000 xarajat = 150,000 so'm sof foyda)

O'quvchi ushbu jarayonda quyidagi tadbirkorlik bosqichlarini bosib o'tadi:

1.Rejalashtirish: 200 000 so'm pul topish va uni ashyolarga to'g'ri sarflash.

2.Vaqtini boshqarish: 1 m<sup>2</sup> gilamni bitirish uchun ketadigan kunlarni hisoblash.

3.Marketing: Tayyor gilamni kimga sotish mumkin? (Masalan: sovg'abop mahsulot sifatida qarindoshlarga yoki mahalliy bozorda).

O'quvchi o'z qo'li bilan yaratgan mahsulotidan 150 000 so'm daromad olishi mumkinligini ko'rsa, unda darsga nisbatan qiziqish (ichki motivatsiya) keskin ortadi. U "hunar — bu daromad" ekanligini amalda tushunadi.

**Tahlil va natijalar.** O'tkazilgan pedagogik eksperiment natijalari o'quv motivatsiyasi va tadbirkorlik ko'nikmalarining shakllanish darajasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri korrelyatsion bog'liqlik mavjud. Eksperimental guruhda "EntreComp" modeliga asoslangan loyihaviy o'qitish metodikasini qo'llash natijasida o'quvchilarning ichki

motivatsiyasi nazorat guruhiga nisbatan 24% ga ortganligi kuzatildi. Ayniqsa, o'quvchilarda "muvaffaqiyatga intilish" motivi kuchayishi bilan birga, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi tadbirkorlik sifatlarining ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada yaxshilandi.

Motivatsiyaning tarkibiy qismlari o'quvchilarning tadbirkorlik kompetensiyalarini o'zlashtirish tezligiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Tashqi motivlar (baho, tan olinish) o'quvchini faoliyatga jalb qilishning dastlabki bosqichida samarali bo'lsa-da, barqaror tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda ichki motivlar (shaxsiy qiziqish, o'z-o'zini namoyon qilish) hal qiluvchi rol o'ynaydi. Matematik-statistik tahlil (Styudent t-kriteriysi) natijalari eksperimental guruhda qayd etilgan ijobiy o'zgarishlarning tasodifiy emasligini va taklif etilgan motivatsion yondashuvning yuqori samaradorligini isbotladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilar dars jarayonida o'zlarini erkin ijodkor va "loyihalar egasi" sifatida his qilganlarida, ularning ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvchanligi ortadi. Tadbirkorlik ko'nikmalarining shakllanishi faqatgina iqtisodiy bilimlar yig'indisi emas, balki motivatsion-irodaviy tayyorgarlikning natijasidir. Binobarin, ta'lim tizimida o'quvchi qiziqishlarini tadbirkorlik faoliyati bilan integratsiya qilish orqali nafaqat o'qish samaradorligini oshirish, balki yoshlarda bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos keluvchi faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish mumkin.

**Xulosa.** Motivatsiyaning poydevorlik roli o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish shunchaki nazariy bilimlarni uzatish emas, balki ularning ichki motivatsion tizimini qayta qurish jarayonidir. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar xatolardan qo'rqmaslik, kreativ yondashuv va o'z-o'zini boshqarish kabi tadbirkorlik sifatlarini tezroq o'zlashtiradilar.

EntreComp modelining samaradorligi tadqiqotda qo'llanilgan Yevropa tadbirkorlik kompetensiyalari asosi o'quvchilarning "g'oyadan — harakatga" o'tish zanjirini tushunishlarida asosiy metodik vosita bo'lib xizmat qildi. Motivatsiya bu zanjirda barcha resurslarni harakatga keltiruvchi "motor" vazifasini o'tashi isbotlandi.

Yondashuvning o'zgarishi an'anaviy dars berish uslubidan loyiha asosida o'qitish va simulyatsiya usullariga o'tish o'quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy moslashuvchanligini samarali darajada oshirish imkonini berdi.

Tadbirkorlik ta'limi samaradorligini oshirish va o'quvchilarda bu ko'nikmalarni barqaror shakllantirish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

O'quv dasturlarini transformatsiya qilish "Iqtisodiy bilim asoslari" va "Texnologiya" fanlari dasturiga ko'proq amaliy mashg'ulotlar, startup-loyihalar va biznes-keyislarni kiritish lozim. Nazariya va amaliyot nisbatini 40/60 ko'rinishiga keltirish maqsadga muvofiq.

Psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi maktab psixologlari va pedagoglari hamkorligida o'quvchilarning "muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi" ni aniqlash va rivojlantirish

bo'yicha treninglar tashkil etish. Bu o'quvchilarda tavakkalchilikdan qo'rqish to'sig'ini yengishga yordam beradi.

“Maktab-biznes” hamkorligi o'quvchilarda tashqi motivatsiyani (real natijani ko'rish orqali) oshirish uchun muvaffaqiyatli tadbirkorlar bilan muntazam "Master-klass"lar va ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar tashkil etish.

Raqamli texnologiyalardan foydalanishda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantiruvchi maxsus mobil ilovalar va biznes-simulyator o'yinlarini dars jarayoniga integratsiya qilish. Bu o'quvchilarning qiziqishini (ichki motivatsiyasini) zamonaviy shaklda ushlab turishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muslimov N.A. va boshqalar. "Kasbiy ta'lim metodikasi". Darslik. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015.
2. G'ulomov J. "Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi". – Toshkent: "O'qituvchi", 2021.
3. Saidov M. "O'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari". Monografiya. – Toshkent, 2019.
4. Vahobov A. "Iqtisodiy ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchi motivatsiyasi". Metodik qo'llanma. – Samarqand, 2022.
5. McClelland, D. C. (1961). *The Achieving Society*. Princeton, NJ: Van Nostrand. (Muvaffaqiyat motivatsiyasi bo'yicha asosiy asar).
6. Xudoyberdiyeva N.R. Motivatsion yondoshuv asosida o'quvchilarning tadbirkorlikka oid ko'nikmalarini shakllantirish //“Xalq ta'limi” 2025 yil yanvar 1- son,11- 16- betlar.
7. Xudoyberdiyeva N.R. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda motivatsion texnologiyalarning o'rni // “O'Zmu XABARLARI” 2025 yil 1/2/1, 216-217- betlar.

NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934